



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YO'LI SIFATIDA

Temirova Gulmira Alibekovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Maqolada kompetensiyaviy yondashuvining ta'lim ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi mohiyati tahlil etilgan. Kompetensiya, kompetentlik tushunchalarining nazariy asoslari talqin qilingan. Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv orqali Chingiz Aytmatov asarlarini o'rganish samaradorligi aniqlashtirilgan.

Kalit so'zlar:

kompetensiya, kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim tizimi, pedagogik faoliyat, adabiyot ta'limi, metodika, salohiyat, kognitiv, motivasiya, empatiya, ko'nikma, qadriyat.

Аннотация.

В статье анализируется сущность компетентного подхода в совершенствовании образовательного процесса. Интерпретируются теоретические основы понятий компетенции и компетентности. Уточнена эффективность изучения произведений Чингиза Айтматова с помощью компетентного подхода в литературном воспитании.

Ключевые слова:

компетенция, компетентность, компетентный подход, образовательная система, педагогическая деятельность, литературное образование, методология, потенциал, познавательный, мотивация, эмпатия, навык, ценность.

Abstract.

The article analyzes the essence of the competence approach in improving the educational process. The theoretical foundations of the concepts of competence and competence are interpreted. The effectiveness of learning the works of Chingiz Aitmatov through the competence approach in literary education has been clarified.

Keywords:

competence, competency, competency-based approach, educational system, pedagogical activity, literary education, methodology, potential, cognitive, motivation, empathy, skill, value.

XXI asr ta'limining asosiy maqsadi - har tomonlama rivojlangan, mas'uliyatli va tezkor fikrlaydigan, bir umr o'rganishga qodir shaxslarni tarbiyalashdir. Bu maqsadga erishish uchun dunyo miqyosida ta'lim tizimlari kompetentlikka asoslangan yondashuvga o'tib bormoqda [1, 4].

Ushbu yo'nalishda «kompetensiya» tushunchasi alohida o'rin tutadi. Biroq amaliy va nazariy jihatdan bu tushuncha ko'p hollarda chalkashtiriladi yoki faqat «bilim» degan tushuncha bilan cheklab qo'yiladi. Shu bois, kompetensiyaning mazmunini chuqur anglash har bir pedagog uchun nihoyatda muhimdir.

Kompetensiya - bu insonning muayyan faoliyatni bajarishga tayyorligi, boshqacha aytganda, aniq bir vaziyatda samarali harakat qila olishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, tajriba va munosabatlarning integratsiyalashgan majmuasidir.

Ilmiy adabiyotlarda «kompetensiya» tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi:

- pedagogik fanlarda - bu o'quvchining ta'lim jarayonida va real hayotda barqaror hamda moslashuvchan tarzda harakat qila olishini ta'minlovchi integral sifat;
- psixologiyada - bu insonning kognitiv, emosional va ijtimoiy qobiliyatlarining uyg'unligi;
- metodikada - ta'limning maqsadi va natijasi sifatida qaraladi.

Ko'p hollarda «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Biroq, ular mazmun jihatidan o'zaro farq qiladi:

Kompetensiya	Kompetentlik
Bilim, ko'nikma, sifatlar yig'indisi (potensial).	Ana shu imkoniyatlarni amalda samarali qo'llash.
Nazariy asos hisoblanadi.	Amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish ko'rsatkichi.

O'qituvchi - bolani to'g'ri yo'lga solish, o'qitish va tarbiyalashga qaratilgan turli xizmat (rolli) vazifalarni bajaruvchi shaxsgina emas, balki bolaning fiziologik va psixologik o'sib-rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsata oladigan insondir [2].

Shuningdek, tarbiya jarayonida kelajak avlodni musiqiy savodxonlikka ham tarbiyalash yoki yo'naltirish bo'yicha integratsiyani mustahkamlash ma'naviy tarbiyaning asosiy o'zagi hisoblanadi [3].

Aslida o'qituvchi - zamon talablariga javob beradigan, kompetentli, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini va o'quvchini chin dildan sevuvchi mutaxassis bo'lishi lozim. O'quvchilarni yuragi bilan qabul qila olgan o'qituvchigina o'z kasbini haqiqiy qadrlay oladi [4].

Kompetentlikka asoslangan yondashuvga o'tish ta'limning yakuniy natijalarini yaxshilash imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasasi, talaba shaxsi, shuningdek ish beruvchilar (ushbu tizimning yakuniy iste'molchilari) uchun foydali bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar doimiy ravishda olib borilayotgani shubhasiz [5].

Kompetentlik - ta'lim jarayonining asosiy maqsadidir. Kelajak o'qituvchisi avvalo o'zi kompetentli bo'lishi lozim. Shu bilan birga, u o'quvchilarda ham kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat olib borishi kerak.

Masalan, o'qituvchida o'quvchining qiziqishini oshiruvchi metodlar haqida bilim mavjud (kompetensiya), ana shu bilimni dars jarayonida muvaffaqiyatli qo'llay olishi - bu kompetentlik hisoblanadi.

Kompetensiyaning tarkibi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Bilim (kognitiv) - tegishli mavzuga oid faktlar, tushunchalar va qoidalar.
2. Ko'nikma va qobiliyatlar - bilimni qo'llash, muammoni hal etish, amaliy harakatlarni bajarish.
3. Munosabat va qadriyatlar - hayotiy hamda ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan axloqiy munosabat, fuqarolik javobgarligi.
4. Motivasiya va refleksiya - faoliyatga turtki berish va o'z ish faoliyatini baholay olish qobiliyati.

Kompetensiyani rivojlantirish - pedagogik maqsad hisoblanadi [1]. Ta'lim tizimida kompetensiya: ta'lim mazmunini aniqlaydi (nima o'rganilishi kerak?); metodlarni tanlaydi (qanday o'rgatish kerak?); natijani baholaydi (o'quvchi nimalarga erishdi?).

Badiiy adabiyot jamiyatning o'z-o'zini anglab yetishida, o'tmishni hotirlashida, yoshlar ongini insonparvarlashtirishda, ona tili boyliklarini o'zlashtirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Globallashtirish jarayoni jadal sur'atlar bilan kechayotgan bir paytda, insoniyat o'zi bosib o'tgan yo'lini qayta-qayta anglab o'rganmasa, boshi berk ko'chaga kirib qolishi aniq bo'lib turgan hozirgi sharoitda maktabda o'qitiladigan adabiyot fanining zimmasiga alohida mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.

Turi	Mazmuni
Tayanch (umumiy) kompetensiyalar	Barcha fanlar va hayotiy faoliyat uchun muhim (mustaqil fikrlash, muloqot qilish, axborot bilan ishlash, fuqarolik ma'suliyat va boshqalar).
Predmetga oid kompetensiyalar	Ma'lum bir o'quv faniga taalluqli (matematika, adabiyot, biologiya va h.k.).
Kasbiy kompetensiyalar	Turli mutaxassisliklarga oid (o'qituvchilik, shifokorlik va boshqalar).

Adabiyot fani - badiiy asarni anglab tushunish va unda anglangan g'oyalarni hayotda qo'llashga o'rgatuvchi fan hisoblanadi [6, 7].

Masalan, adabiyot darsida o'quvchi uchun matnni tushunishning o'zi yetarli emas, u matnni tahlil qila olishni, qahramon va mavzuni hayot bilan bog'lashni, o'z fikrini bildirishni hamda oqilona xulosa chiqarishni o'rganishi lozim. Ana shu faoliyatlar kompetensiya orqali amalga oshiriladi.

Chingiz Aytmatov asarlari - shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning jonli laboratoriyasidir. Masalan: "Asrga tatigulik kun" romanini o'qitish jarayonida falsafiy tahlil, axloqiy qarorlar, tarix va hozirgi zamon bilan bog'liqligi orqali fuqarolik va madaniy kompetensiyalar shakllanadi.

Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romani - XX asrdagi ijtimoiy, axloqiy, madaniy va falsafiy mavzularni qamrab olgan chuqur mazmunli badiiy asardir [7]. Ushbu asarni maktab yoki oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda faqat matnni tushuntirish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Uni falsafiy, axloqiy hamda tarixiy-zamonaviy nuqtai nazarlar orqali tahlil qilish fuqarolik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali usuli hisoblanadi.

I. Fuqarolik kompetensiyasi - bu jamiyatdagi o'rningni tushunish; fuqarolik mas'uliyatini his qilish; ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga hushyor qarash; boshqalar huquqlarini hurmat qilish; o'z nuqtai nazarini asosli tarzda izohlay bilish.

"Asrga tatigulik kun" romanida ushbu kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi mavzularni qo'llash mumkin.

1. Bir-birini inkor etuvchi tizimlarning to'qnashuvi:

Edigeyning insoniy qadriyatlarga asoslangan ichki dunyosi bilan davlat, byurokratik tizim to'qnashadi.

Tahlil uchun savollar:

- Nega Edigey Qazangapni o'z urf-odatiga muvofiq dafn etishga harakat qiladi?

- Inson milliy qadriyatlarni saqlagan holda fuqarolik burchini qanday ado etishi mumkin?

2. Tarix bilan bugungi kunning bog'liqligi:

Tarixiy yodgorliklarni unutish - jamiyatni o'zligini yo'qotishga olib keladi.

Yangi bir tarix - eski bir yodgorlikni o'chirib yuboryaptimi?

II. Madaniy kompetensiya nima?

Madaniy kompetensiya - bu:

- o'z xalqining madaniyatini teran tushunish;

- boshqa xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lish;

- urf-odat va zamonaviy hayot o'rtasidagi muvozanatni saqlay olish.

1. Urf-odat va zamonaviy qoidalar:

- Edigey urf-odatga tayangan holda do'stini "o'z xalqining urf-odatiga xos" dafn etishga harakat qiladi.

- Lekin shu vaqtda kosmodrom rahbariyati va davlat organlari vakillari bu harakatni qonunga zid deb hisoblashadi.

Savollar:

- Urf-odat bilan qonun qachon to'qnashadi?

- Qachon urf-odatni saqlash madaniy merosni davom etishi hisoblanadi?

II. Qadimiy turk dunyosiga murojaat

- Mangqurt mavzusi - madaniyatdan uzilgan, ildizini unutgan inson tragediyasi.

Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanidan so'ng, butun dunyo insoniyatining ongi-shuuri bir so'z bilan, zamonaviy insonning insoniy qadriyati muammosi bilan bog'liq eng muhim tushuncha bilan boyidi. Bu "mankurt" degan so'z-termin edi [8].

Ushbu mavzu o'quvchilarning identifikasiya (o'zlik) hissini uyg'otadi: "Madaniyat bo'lmasa, inson kim bo'ladi? Ildizini unutgan kishi jamiyatga qanday zarar keltiradi?"

III. Falsafiy tahlil orqali kompetensiyani teranlashtirish. Aytmatov falsafiy fikrlashni badiiy matn orqali yetkazadi. Masalan: vaqt kategoriyasi (bir kun, biroq asrga teng), inson va ijtimoiy munosabat, hayot bilan o'lim mavzusi, xotira.

Ushbu mavzular yuzasidan talabalar/o'quvchilar: esse yozib, ifodali o'qishdan so'ng tahlil yuritib, rolli o'yinlar orqali o'z dunyoqarashlarini bildirib; bugungi jamiyatda analogiya (o'xshashlik) izlab, mavzuni davom ettira olgan, mulohazaga chorlagan savollarni berishadi.

IV. Amaliy usullar bilan ishlash taklifi

Metod	Maqsad
«Muammoni tahlil qilish»	Qonun va an'ananing to'qnashuvini dalillar asosida tahlil qilish
«Ochiq mikrofon»	Fuqarolik pozitsiyasini ifoda etish
«Esse» yoki «Tanqidiy fikrlash»	Aytmatov ko'targan muammo bugungi jamiyatda qanday ahamiyatga ega?
«Stsenariy yozish»	Manqurt mavzusini hozirgi zamonga ko'chirib ko'rish
«Xarita tuzish»	Qahramonning madaniy va fuqarolik sifatlarini tasvirlash

«Asrga tatigulik kun» - fuqarolik va madaniy kompetensiyani shakllantirish uchun eng samarali asarlardan biridir. Uni o'qitishda shunchaki voqealarni aytib berish etarli emas - chuqur falsafiy, tarixiy va ma'naviy ma'no orqali o'quvchini fikrlashga, savol berishga va javob izlashga o'rgatish zarur [6]. Bunday yondashuv orqali Aytmatov asari yoshlarni aqlli, o'z ildizini tanigan, fuqarolik ma'suliyatiga ega shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

«Somon yo'li» qissasini o'qitishda oilaviy qadriyat, urushning halokatli oqibatlarini, qahramon taqdirining dramasi orqali empatiya va insoniy munosabat shakllanadi [4].

Chingiz Aytmatovning «Somon yo'li» qissasi - inson taqdirining mungli, ammo umidga yo'naltirilgan tragediyasidir. Ushbu asar orqali oila, sevgi, yo'qotish, qayg'u va kechirimlilik kabi mavzular o'rgatilib, empatiya (boshqani tushunish, hamdard bo'lish) hamda insoniylik munosabati shakllanadi. Bu - bugungi yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega material.

1. Empatiya va insoniy munosabat nima?

Empatiya - bu boshqa insonning holatini, qayg'usini, quvonchini chuqur his etish, uni qalban qabul qilish. Insoniy munosabat - bu insonga nisbatan hurmat, mehr, adolatli, sabr-toqatli va qardoshlik munosabatda bo'lish.

Bu ikki tushuncha - emotsional intellektning o'zagini tashkil etadi. Aytmatov asarlari orqali ushbu sifatlarni o'quvchilarda rivojlantirish - o'qituvchining asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

2. Qissa tematikasi orqali empatiyani shakllantirish

- Oilaviy qadriyatlar

Qissa markazida - To'lg'onoy va Subanqulning oilasi turadi. Urush bu oilaning butun taqdirini o'zgartirib yuborgan.

Tahlil:

To'lg'onoy uch o'g'lini yo'qotadi, ammo qayg'uga qaramay hayotga qaytadi. Eridan, farzandlaridan ayrilgan ayol o'z qayg'usini xalq qayg'usi bilan teng qo'yadi. O'quvchilar oila degani faqat qarindoshlik aloqasi emas, balki Yaratgandan berilgan muqaddas burch ekanini anglay boshlaydi.

Muhokama:

- Yaqinlarini yo'qotganda inson qanday qilib sinmasdan yashay oladi?

- To'lg'onoy o'z qayg'usini qanday engdi?

Urushning fojeasi bu asarda frontdagi otishmalar orqali emas, balki front ortidagi xalqning qayg'usi orqali aks ettiriladi.

Tahlil:

Har bir yo'qotish - butun xalqning yo'qotishidir.

Qishloqdagi har bir uyda qayg'u, sukutdagi yig'i, bo'm-bo'sh qo'rg'onlar. O'quvchilar urushni faqat "tarixiy sana" sifatida emas, balki tirik insonlarning hayot bilan vidolashuvi, alam-iztiroblari va hayotning vayron bo'lishi sifatida his qila boshlaydilar.

Qiyoslash:

Hayotda yaqin kishilar yoki hamqishloqlarning urush davrida yaqinlaridan ayrilgandagi his-tuyg'ulari va holatini To'lg'onoyning ahvoli bilan qiyoslash. Urush mavzusining adabiyotda obrazli ifodalanishi. To'lg'onoyning hayoti - bu qayg'u, matonat, kechirim va qayta yashashga qaytish timsoli. To'lg'onoy kuchli xarakteri bilan farzandlarini yo'qotganiga qaramay, boshqa kelinlarga tirgak bo'ladi. U o'z qayg'usini "xalq qayg'usi"ga aylantirib, insoniy yuksaklikka erishadi. To'lg'onoy obrazini tahlil qilish orqali talabalarda empatiyani uyg'otishga erishish mumkin: Tolg'onayning qalbi orqali kitobxon ayolning qayg'usini, onaning taqdirini, xalqning dardini his etadi.

1. Metodik yondashuvlar orqali kompetentsiyani rivojlantirish

Metod	Foydalanish uchun misollar	Shakllanadigan sifat
«Hech qachon unutmayman» (esse)	Urushdan qaytib kelmagan o'g'ilning siymosi haqida	Empatiya, xotira
«Rolli o'yin»	To'lg'onoy - Ona Er - Maysalbek o'rtasidagi suhbatni sahnalashtirish	Mehr-shafqat
«Muammoni tahlil qilish»	Shaxsiy qayg'u va jamiyat oldidagi ma'suliyat	Etik tushuncha
«Tarixiy manzarani tasvirlash»	Urush davridagi qishloq hayoti	Dunyoqarashning kengayishi

«Savol-javob»	Qahramonning tanlovi to'g'rimi? Nima uchun?	Tanqidiy fikrlash
---------------	---	-------------------

Qissani o'qitish jarayonida empatiya va insoniy munosabat quyidagi shartlarda shakllanadi:

- O'quvchi qahramonni tushunishga intiladi, u bilan birga qayg'uradi, quvonadi.
- Hayotdagi taqdirning xilma-xilligini qabul qilishni o'rganadi.
- O'z oilasi, ota-onasining qadrini yanada chuqurroq his eta boshlaydi.
- Boshqalarning ahvolini tushunib, yaxshi munosabat qilishga intiladi.

«Somon yo'li» – yoshlarni mehr-shafqatga, sabr-toqatga, bardoshlilikka, yaqin insonlarni qadrlashga o'rgatuvchi badiiy-psixologik maktab [4]. Uni o'qitish –shunchaki asarni o'qib chiqish emas, balki bu - qalbni tarbiyalash. Haqiqiy bilim - qalb dunyosiga ta'sir etuvchi tarbiya bilan uyg'un bo'lgandagina insonni kamol toptiradi. Aytmatov asarlari bilan ishlash jarayonida quyidagi metodlar kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan: tahlil va qiyoslash; rolli o'yinlar; debat va tanqidiy fikr; ijodiy topshiriqlar; insert, klaster, sinkveyn, esse va boshqalar.

Demak, kompetensiya - bu bugungi ta'limning faqat maqsadi emas, balki millat kelajagini ta'minlovchi asosiy omildir. Kelajak o'qituvchilari, ayniqsa pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalari, kompetensiya nazariyasinigina emas, uni amalda shakllantirish usullarini ham chuqur o'zlashtirishlari lozim. Har bir o'qituvchi kompetensiyani rivojlantirish orqali tushungan, his etgan va harakat qila olgan shaxsni tarbiyalab chiqaradi. Ana shundagina ta'lim - haqiqiy hayotga xizmat qiladigan jarayonga aylanadi.

Kompetentlik - bu insonning bilim, qobiliyat, ko'nikma va tajribani integratsiya qilib, ularni real hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyatidir. Ta'limda ushbu tushuncha o'quvchilarning nazariy bilimini amaliy faoliyatga aylantirishida asosiy o'zak bo'lib xizmat qiladi [1].

Xulosa qilib aytganda, kompetentlikka asoslangan ta'lim - bilimni hayotiy faoliyatga aylantirish yo'lidagi asosiy konsepsiyadir. U ta'lim tizimini sifat jihatdan yangilab, jamiyat uchun ma'suliyatli, moslashuvchan va yaratuvchan avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi. Demak, kompetentlikka asoslangan ta'lim - bugungi kunning zaruratigina emas, balki kelajakdagi muvaffaqiyatli jamiyatning poydevoridir.

Kompetentlik - bu shaxsning bilim, ko'nikma, ish tajribasi va qadriyatlarini uyg'unlashtirib, ularni real hayotiy vaziyatlarda samarali va to'g'ri qo'llay olish qobiliyati. Bu tushuncha hozirgi ta'limning asosiy yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, kelajakdagi o'qituvchilar - pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar - kompetentlik tushunchasini faqat o'zlashtiribgina qolmay, uni o'qitish amaliyotida tatbiq etishni ham o'rganishlari shart.

O'qituvchining vazifasi - faqat bilim berish emas, balki shaxsni shakllantirishdir. Bu katta mas'uliyat. Shuning uchun pedagog o'z faoliyatida quyidagi kompetentliklarga ega bo'lishi zarur:

1. Metodik kompetentlik - ta'lim mazmuni va usullarini to'g'ri tanlay bilish;
2. Kommunikativ kompetentlik - o'quvchilar bilan til topisha olish, ochiq muloqot qilish;
3. Psixologik-pedagogik kompetentlik - bolaning rivojlanish xususiyatlarini tushunish;
4. Axborot kompetentligi - zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
5. Madaniy va fuqarolik kompetentligi - o'z madaniyatini hurmat qilish, boshqa madaniyatlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish.

Ushbu qobiliyatlar - kelajak o'qituvchisi uchun eng muhim sifatlarning o'zagini tashkil etadi.

Adabiyot darsi - kompetentlikka asoslangan yondashuvning asosiy maydonidir. Chunki adabiyot: insonning ichki dunyosiga ta'sir ko'rsatadi; axloqiy-etik tushunchalarni shakllantiradi; fikrlashga, tahlil qilishga va qiyoslashga o'rgatadi.

Chingiz Aytmatov asarlarini o'qitish bu yo'nalishda alohida imkoniyatlarni yaratadi. Sababi, Aytmatovning qahramonlari haqiqat, insoniylik, milliy ildiz, madaniy qadriyatlar haqida chuqur savollarni qo'yadi. Ana shu mavzular orqali o'quvchi o'zini va atrof-olamni anglay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiraxmanov T.A., Nogaev M.A. Азыркы билим берүүдөгү компетенттик мамиле: Окуу-методикалык колдонмо. – В., 2013. - 121-b.
2. Samatova A.A., Koshmatova J.J., Ergeshali kizi A., Sherov Sh.B. Баланын өзүнө ишенимин калыптандырууда мугалимдин орду. // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. – 2023. - №.4. – S. 282-286.
3. Nuralieva M.T. Этнопедагогика – элдин турмушун чагылдырган акыл-ойдун уюткулуу кенчи. // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана.- 2023. - №.4. – S. 251-254.
4. Koshmatova J.J. Мугалимдин баарлашуу маданияты жана сөз философиясынын окуучуларга тийгизген таасири. // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана.. – 2023. - №.4. – S. 280-282.
5. Barpibaev T.R., Kaldibaev S.K., Toktomambetova J.S. Жогорку кесиптик билим берүүдө компетенттүүлүк мамилени ишке ашырууда окутуучулардын ишмердүүлүгү. // Известия ВУЗов Кыргызстана. – 2020. - № 1. - S.129-133.
6. Muratov A. Кыргыз адабиятын окутуу: теориясы жана практикасы. - В: Turar, 2013. – 554-b.
7. Атматов энциклопедиясы: Портреттер, илимий макалалар, эскерүүлөр, каттар, маалыматтар, документтер, сүрөттөр ж.б. - Ит. / А.Акматалиевдин жалпы ред. астында. – В.: Turar, 2018. – 932-b.
8. Chokoeva D.M. Чыңгыз Айтматовдун чыгармаларын Георгий Гачевдин изилдөөлөрү аркылуу реминисценциялык аспекттен талдоо. // Известия ВУЗов Кыргызстана. – 2022. - №. 5. - S. 245-278.
9. Abdullaeva R. Жаңы технологиялар Чыңгыз Айтматовдун чыгармаларын окутууда: Окуу-методикалык колдонмо. – В. 2023, 262-b.
10. Muratov A. Чыңгыз Айтматов – жазуучу-этнопедагог: Моногарифия. – В., 2006. – 204-b.
11. Madaminov G. Устаттык өнөрү: Окуу-методикалык колдонмо. – В.: 2023 – 152- b.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna		
<i>Bo'lajak sotsiologlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol pedagogik texnologiyalarning samaradorligi</i>	4	10
Axunov Umidbek Ruzibayevich		
<i>Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kinestetik rivojlanish darajasini baholash mezonlari</i>	11	13
Saidg'aniyev Saidaxmad Oybek o'g'li		
<i>Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining nazariy tayyorgarligi mazmuni va ahamiyati</i>	14	17
Каримова Наргиза Яхёевна		
<i>Роль идеологического иммунитета в процессе социально-психологической адаптации молодежи</i>	18	23
Anvarbekova Xilola Numanovna		
<i>Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak informatika o'qituvchilarida media kompetentligini rivojlantirish</i>	24	28
Temirova Gulmira Alibekovna		
<i>Kompetentsiyaviy yondashuv ta'lim jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'li sifatida</i>	29	35
Xamitjonov Muxammadbobir Ulug'bek o'g'li		
<i>Dzyudo sportida vazn boshqaruvini takomillashtirishning pedagogik va fiziologik asoslari</i>	36	40
Qushmonov Adaxam Akramjonovich		
<i>Xalq o'yinlari asosida talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari</i>	41	44
Umarov Azizbek Vaxobovich		
<i>Xorijiy ta'lim tajribalarida mediakompetentlikni rivojlantirish modellari va ularning pedagogik ahamiyati</i>	45	50
Abduraxmonova Dilobar Shuhratbekovna		
<i>Tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida individual yondashuv asosida baholash va rag'batlantirish kompetensiyalarini shakllantirish</i>	51	53
Qushmonov Adaxam Akramjonovich		
<i>Pedagogika yo'nalishi talabalarining jismoniy faollik ko'nikmalarini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish metodikasining samaradorligini tajriba-sinovda asoslash</i>	54	57
Rahmonov Mirzoxid Shavkatovich		
<i>Sun'iy intellekt va ta'lim: o'zbekiston tajribasi</i>	58	64
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li		
<i>Talaba - yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning mentorlik modeli</i>	65	70
Xabibullayeva Xilola		
<i>Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish yo'llari</i>	71	73

